

XORAZM TAMG‘ALARI VA TURKIY TANGALARDA ASTRAL-TOTEMISTIK SEMANTIKA

Mahliyo Misrbekova

Samarqand davlat chet tillari instituti o‘qituvchisi

E-mail: misrbekovamahliyo1234@gmail.com

Orcid: <https://orcid.org/0009-0003-8756-1053>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21901853>

Annotatsiya: Maqolada Xorazm mintaqasi va turkiy xoqonliklar davlatchiligi misolida astral va totemistik belgilarning semantik tahlili berilgan. Xorazm petroglif-tamg‘alari, Turkiy-numizmatik tadqiqotlar asosida ramziy tizimning davlat legitimatsiyasi va siyosiy-huquqiy funksiyalar kasb etish jarayoni ko‘rib chiqilgan. Xorazm va turkiy xoqonliklar hududiy va siyosiy jihatdan mustaqil ikki tuzilma sifatida yangi ilmiy yondashuv asosida ramziy tizimning qiyosiy tipologik namuna sifatida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: astral belgilar, totemistik ramzlar, Xorazm, turkiy xoqonliklar, tangalar, petroglif, tamg‘a, Choch numizmatikasi.

Аннотация: В статье представлен семантический анализ астральных и тотемистических символов на примере государственности Хорезма и тюркских каганатов. На основе исследований хорезмских петроглифов и тамг, а также тюркской нумизматики рассматривается процесс формирования символической системы, выполнявшей функции государственной легитимации и политико-правового регулирования. Хорезм и тюркские каганаты, представлявшие собой две самостоятельные в территориальном и политическом отношении государственные структуры, анализируются на основе нового научного подхода как сравнительно-типологические модели символических систем.

Ключевые слова: астральные символы, тотемистические символы, Хорезм, тюркские каганаты, монеты, петроглиф, тамга, нумизматика Чача.

Abstract: This article presents a semantic analysis of astral and totemic symbols through the examples of the statehood of Khorezm and the Turkic Khaganates. Based on studies of Khorezmian petroglyphs and tamgas, as well as Turkic numismatic evidence, the paper examines the process by which the symbolic system acquired functions of state legitimization and political-legal authority. Khorezm and the Turkic Khaganates, regarded as two territorially and politically independent state entities, are analyzed through a new scholarly approach as comparative typological models of symbolic systems.

Keywords: astral symbols, totemic symbols, Khorezm, Turkic Khaganates, coins, petroglyphs, tamga, Chach numismatics.

O‘rta Osiyo davlatchiligi tarixida moddiy madaniyat yodgorliklaridagi ramziy tasvirlar yozma manbalar yetishmaydigan davrlarni to‘ldiruvchi mustaqil manba vazifasini bajaradi. Astral (quyosh, oy, yulduz) va totemistik (hayvon kulti) motivlar Xorazm va turkiy xoqonliklar davlatchiligida muhim mafkuraviy rol o‘ynagan. Shuni alohida ta’kidlash joizki, Xorazm va turkiy xoqonliklar hududiy jihatdan qo‘shni bo‘lsa-da, siyosiy jihatdan mustaqil ikki tuzilma edi: mavjud tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, Xorazm Turk xoqonligi davrida ham o‘z siyosiy mustaqilligini saqlab qolgan, turkiy tangalar esa asosan Choch (Toshkent) vohasiga tegishli bo‘lib, G‘arbiy Turk xoqonligi bevosita nazorat qilgan boshqa mintaqada zarb etilgan. Shunga qaramay, ikkala mintaqada ham astral-totemistik ramzlarning davlatda qonuniylik vositasiga aylanish jarayoni tipologik jihatdan o‘xshash yo‘nalishni namoyon etadi, bu esa ularni qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi.

I.V. Chernishning Prisariqamish deltasidagi ko‘p yillik tadqiqotlariga ko‘ra, Xorazm mintaqasidagi piktografik yodgorliklar miloddan avvalgi VII asrdan XVII asrgacha, ya’ni deyarli 24 asr mobaynida rivojlanib kelgan bo‘lib, bu belgi an’anasining davlatchilik institutlari bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. Turkiy xoqonliklar davrida esa Choch vohasida tanga zarb qilish orqali o‘xshash institutsionalizatsiya jarayoni mustaqil ravishda kuzatiladi. Maqolada ushbu ikkita mustaqil, ammo tipologik jihatdan qiyoslanadigan misolda ramziy tizim arxeologik, numizmatik va semiotik tahlil asosida ko‘rib chiqiladi; metodologik jihatdan Yu.M. Lotmanning ramziy tizimni matn sifatida talqin qilish g‘oyasiga tayaniladi, bunga ko‘ra har qanday belgilar majmuasi o‘z strukturaviy bog‘liqliklari orqali o‘qiladi[1].

I.V. Chernishning Prisariqamish deltasidagi ko‘p yillik tadqiqotlari Xorazm shimolidagi besh g‘or shahrida petroglif va tamg‘a an’anasining uzluksiz davom etganligini aniqlagan. Ot tasvirlari alohida o‘rin

tutadi: Qadimgi insonlar tasavvurida ot boshi tong, koʻzlar quyosh, tanasi yil, tuyoqlari yer, tananing old qismi chiqayotgan quyosh, orqa qismi botayotgan quyosh maʼnosini anglatganligini qayd etadi [2]; bu kosmik ramziyat hukmdorning koinot tartibi bilan uygʻunligini, yaʼni «osmon-yer» bogʻlovchisi sifatidagi rolini ifodalagan.

Xoch shaklidagi hayvon tasvirlari astral harakat yoʻnalishining ramziy koʻrsatkichi hisoblangan; Bu tasvirlar quyosh belgilari bilan birgalikda dalalarni xochnakroch ishlash amaliyoti va asosiy geografik koordinatalar tushunchasining shakllanishini aks ettirgan. Tamgʻalarning evolyutsiyasi esa ularning dastlabki urugʻ belgisidan hududiy tegishlilik va siyosiy konfederatsiya ramziga aylanish jarayonini koʻrsatadi:

Ilk oʻrta asrlarda turkiy xoqonliklarning tanga zarb qilishi davlatchilik institutlarining rasmiylashuvidan dalolat beradi. Gʻ. Boboyorovning kuzatishlariga koʻra, tanga zarb qilish orqali har bir davlat oʻz mustaqilligi va hokimiyat legitimatsiyasini namoyon etgan; Tun yabgʻu-xoqon tangalaridagi tasvirlar ushbu jarayonning yorqin namunasi hisoblanadi. Tangalardagi sher tasviri kuch, jasorat va hokimiyat ramzi sifatida ishlatilgan, Umay ilohasi esa unumdorlik, homiylik va davlat boshqaruvidagi xotun (malika) shaxsiyatining ramziylashuvi boʻlgan[3]. Qadimgi turkiy bitiktoshlardagi maʼlumotlarga asoslanib, xoqonga hamroh boʻlgan xotunning ramziy maʼnoda Umayga tenglashtirilganligini, yaʼni unumdorlik va baraka manbai sifatida qaralganligini taʼkidlaydi.

Turkiy tangalarda yarim oy, yulduz, oʻq-yoy, qilich, aso (hassa) va zoomorf taxt kabi elementlarning birikishi ularning nafaqat diniy, balki siyosiy-huquqiy maʼno kasb etganligini koʻrsatadi. Yarim oy ustida yulduz tasviri qadimgi turklar tomonidan gʻalaba ramzi deb hisoblangan, bu esa Yaqin Sharq mifologiyasidagi astral ramzlar evolyutsiyasi jumladan, Bobil mifologiyasidagi Sin va Ishtar bilan bogʻliq anʼanalar bilan maʼlum darajada oʻxshashlik kasb etadi; astral belgilar Tangridan xoqonga berilgan «qut» tushunchasi bilan bogʻliq boʻlsa, totemistik hayvonlar va qurol-yarogʻlar harbiy qudrat va sulolaviy uzluksizlikni ifodalagan. Aso tasviri donishmandlik, uzoq umrlik va kuch-qudrat ramzi hisoblangan Afrosiyob devoriy rasmlarida (650-yillar) turk amaldorlaridan birining asoga suyanganicha tasvirlangani ushbu ramzning hokimiyat atributi sifatidagi oʻrnini tasdiqlaydi [4], zoomorf taxt va qilich tasvirlari esa harbiy jasorat va oliy hokimiyatning vizual ifodasi boʻlib xizmat qilgan. Baʼzi noyob Choch tangalaridagi ikonografik kompozitsiyalar otliq hukmdor va Umay ilohasiga tenglashtirilgan xotun tasvirlari Tangridan xoqonga beriladigan «qut»ni uzatish gʻoyasini ifodalashi mumkinligi taxmin qilinadi, bu esa astral va totemistik ramzlarning davlat mafkurasidagi integratsiyalashgan roldan dalolat beradi.

Xorazm mintaqasida qadimgi qoya belgilari va tamgʻa anʼanasi mahalliy Xorazmshohlar davlatchiligi doirasida davlat ramzi sifatida rasmiylashgan boʻlsa, undan mustaqil ravishda, ilk oʻrta asrlarda Choch vohasida Gʻarbiy Turk xoqonligi taʼsirida tanga zarb qilish anʼanasi rivojlangan. Xorazm tamgʻalarining qadimgi Sharq yozuv tizimlari bilan tipologik oʻxshashligi mintaqaning sak-massaget madaniy doirasidagi mustaqil oʻrnini tasdiqlaydi.

Belgilar har ikkala mintaqada ham vaqt oʻtishi bilan diniy-mafkuraviy maʼnosini saqlab qolgan holda yangi huquqiy-siyosiy funksiyalarni mustaqil ravishda kasb etgan: Xorazm tamgʻalari hududiy tegishlilik va qabila konfederatsiyalarini belgilashd, turkiy tangalar esa davlat mustaqilligi va hokimiyat legitimatsiyasini eʼlon qilishda ishlatilgan, yaʼni har ikki holatda ham ramziy tizim qabila darajasidan davlat institutsionalizatsiyasi darajasiga koʻtarilgan. Tamgʻalarning Choch, Fargʻona, Sugʻd va Xorazm tangalaridagi turli shakllari mintaqadagi turli siyosiy subyektlarning oʻziga xosligini va mustaqil legitimatsiya mexanizmlarini aks ettiradi. Bunday qiyosiy tahlil Oʻrta Osiyoning qadimgi va oʻrta asr davlatchilik tarixini yanada chuqurroq oʻrganish, turli mintaqaviy anʼanalar oʻrtasidagi oʻxshashlik va farqlarni ilmiy jihatdan asoslash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Лотман Ю.М. Структура художественного текста // Лотман Ю.М. Об искусстве. — СПб.: Искусство—СПб, 1998. — С. 14–285.
2. Черныш И.В. Искусственные пещерные жилища в обрывах останцевых возвышенностей Присарыкамьшской дельты и наскальные рисунки в них (по материалам полевых исследований 1974–1994 гг.). – Балашиха, 1996. – Депонировано в Российском СпелеоИнфоЦентре 01.05.96 N 012.
3. Boboyorov Gʻ. Tun yabgʻu-xoqon (risola). – T.: ABU MATBUOT-KONSALT, 2011. – 48 b.

4. Normamatova H.A. G‘arbiy Turk xoqonligi chog‘i Choch tangalarida davlatchilik an‘analarining aks etishi. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2026. – 67 b.